
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI

Atabayeva Nargis Batirovna
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti professori, psixologiya fanlari doktori
nargis-aziza@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar, xususan, uyushmagan yoshlar guruhi bilan ishlash bo‘yicha xalqaro tajriba tahlil qilingan. Unda yoshlar siyosati, yoshlarning jamiyatga integratsiyasi hamda yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yoritilgan. Moldova, Armaniston, Serbiya, Belarus, Finlandiya, Germaniya, Qozog‘iston, Koreya va Ozarbayjon tajribasi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy-islohotlar bilan qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada uyushmagan yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash orqali ularga manzilli psixologik xizmat ko‘rsatish tizimi asoslab berilgan. Uyushmagan yoshlarning “vaqtincha ishsiz” qatlami bilan individual va guruhiy ishlashning o‘ziga xos modeli taklif etilib, uning tarkibiy komponentlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, uyushmagan yoshlar, ijtimoiy qatlam, vaqtincha ishsizlik, psixologik barqarorlik, refleksiya, psixologik xizmat.

Аннотация: В данной статье проанализирован международный опыт работы с молодежью, в частности с группами неорганизованной молодежи. Особое внимание уделено вопросам молодежной политики, интеграции молодежи в общество, а также профилактики правонарушений среди молодежи на основе опыта ряда развитых стран. Опыт Молдовы, Армении, Сербии, Беларуси, Финляндии, Германии, Казахстана, Кореи и Азербайджана сопоставлен с политическими реформами, осуществляемыми в Узбекистане. Кроме того, в статье обоснована система адресного психологического обслуживания неорганизованной молодежи посредством выявления ее социально-психологических особенностей. Предложена специфическая модель индивидуальной и групповой работы с категорией временно безработной неорганизованной молодежи, а также проанализированы ее основные компоненты.

Ключевые слова: молодежь, неорганизованная молодежь, социальный слой, временная безработица, психологическая устойчивость, рефлексия, психологическая служба.

Abstract: This article analyzes international experience in working with youth, particularly with groups of unorganized youth. Special attention is paid to youth policy, youth integration into society, and the prevention of juvenile delinquency based on the experience of several developed countries. The practices of Moldova, Armenia, Serbia, Belarus, Finland, Germany, Kazakhstan, Korea, and Azerbaijan are comparatively analyzed in relation to the political reforms being implemented in Uzbekistan. In addition, the article substantiates a system of targeted psychological support for unorganized youth by identifying their socio-psychological characteristics. A specific model of individual and group work with the temporarily unemployed segment of unorganized youth is proposed, and each of its structural components is scientifically analyzed.

Keywords: youth, unorganized youth, social group, temporary unemployment, psychological stability, reflection, psychological service.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy guruh sifatidagi muammosini tadqiq etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, yoshlar muammolari falsafa, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika fanlari nuqtayi nazaridan keng tadqiq etilmoqda. Yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda yoshlar intellektual va ijtimoiy tajribaning potensial tashuvchilari hisoblanadi. Yoshlarni jamiyatning muhim qatlami sifatida tadqiq etish masalasi insoniyat paydo bo‘lgan davrdan buyon olim-u ulamolar diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Hatto eramizdan avvalgi V asrdayoq yunon faylasufi Suqrot qarashlarida ham “yoshlar orasida hashamatga muhabbat, ota-onaga va kattalarga hurmatsizlik kuchayib” borayotganligi [12] ta’kidlangan. Shuningdek, tarixchi Gerodot Misr ehromlarida quyidagi qaydlar uni ajablantirganini yozadi: “Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilish kerak?!” [6]. Mazkur holatning o‘ziyoq yoshlar va ularni tarbiyalash masalasi uzoq o‘tmishdan buyon dolzarb muammo ekanligini ko‘rsatadi.

Zero, rivoyat qilishlaricha, Luqmoni Hakimdan: “Nasihatlaringizning ko‘pi yoshlarga oid, ammo yoshi kattalarga kamroq bo‘ladi, buning sababi nima?” - deb

so‘raganlarida, u zot shunday javob bergan ekanlar: “Bog‘bon yerni yumshatib ko‘chat o‘tqazib, uning atrofini xas-xashak va zararli yovvoyi o‘tlardan tozalab, kerakli vaqtda suv va o‘g‘it berib tursa, tez orada daraxt yetiladi, unumli va serhosil bo‘ladi. Bolani ham yoshligidan boshlab yaxshi tarbiya qilinsa, go‘zal axloqli va odobli etib o‘stirilsa, u nafaqat o‘ziga, ota-onasiga baxt-saodat keltiradi, balki jamiyat uchun foydali va kerakli inson bo‘lib yetishadi” [11].

Shunday ekan, jamiyatning tayanchi va taraqqiyotining asosi bo‘lgan yoshlar bilan ishlash, ularni qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida e’tibor qaratish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Axloqiy sifatlar talqini va ularning yoshlar xulq-atvorida namoyon bo‘lishida oilaning, ijtimoiy munosabatlarning o‘rni jamiyat kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligi to‘g‘risidagi fikrlar Jaloliddin Rumiy qarashlarida ham aks etgan. Jaloliddin Rumiy ham “Ma’naviy masnaviy” asarida inson xulq-atvori va unga ta’sir etuvchi omillar xususida o‘z fikrlarini bildirgan. Jaloliddin Rumiy o‘zining falsafiy qarashlarida inson ma’naviy kamolotining asosini o‘z-o‘zini anglash tashkil etadi, deb uqtiradi.

Rumiy “ishi va so‘z birligida” futuvvat bo‘lgan inson ma’nan yetuk insondir, deydi. Kishilarning ezgu ishlari o‘zgalar g‘amini yeyishida, dardiga sherik bo‘lishida, o‘zaro ko‘maklashuvida zohir bo‘ladi [10]. Yoshlar kamolotida “asliga qaytish”, “qalbda o‘tli bo‘lish”, “o‘zligini anglash” masalalari muhimligini tahlil qilib beradi.

Bizga ma’lumki, hozirgi kunda jamiyatda “uyushmagan yoshlar” guruhining shakllanishi bevosita o‘zligini anglash, hayotga nisbatan optimistik ishtiyoqning yetishmasligi bilan bog‘liq. Rumiy o‘z qarashlarida yoshlar axloqidagi mazkur holatlarni falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilib bergan. Xususan, allomaning fikricha:

“Kimki mensiz ersa, menlar unga do‘st,
O‘ziga nodo‘st erur mardumga do‘st.
Oyina suratisiz ersa, ne yetar,
Har ne suvrat ersa, unda aks etar” [10].

Bu yerda o‘zini anglamagan, o‘z shaxsiy fikriga ega bo‘lmagan yoshlarga hamma yo‘lboshchilik qilishi, o‘z fikrini singdirmoqchi bo‘lishi haqida gap ketmoqda. Yoshlardagi o‘zini anglamaslik, o‘zining asl mohiyatini tushunmaslik holati “suratsiz oyna”ga qiyoslangan. Biz bilamizki, oyna faqat o‘zgalar qiyofasini aks ettiradi. Bunday yoshlar esa o‘z fikrlari bilan emas, o‘zgalar qarashlari asosida

o‘z hayotlarini quradilar. Bunday yoshlarning turli destruktiv guruhlar ta’siriga tushib qolishi ham ko‘p uchraydi. Shu boisdan alloma yoshlarning o‘z-o‘zini anglashi masalasiga katta urg‘u beradi va o‘z-o‘zini anglashning quyidagi shakllarini tahlil qilib beradi:

Birinchi shakli - o‘z-o‘zini his qilish, ya’ni o‘zini, o‘z jismini qurshab turgan dunyodagi predmet va hodisalardan farqini bilish;

Ikkinchi shakli - jamiyatdagi o‘z o‘rni, shu jamiyat a’zosi, aniq faoliyat egasi, ma’lum ijtimoiy guruhga mansubligini bilish;

Uchinchi shakli - o‘zini fuqaro sifatida anglash, o‘z ishlari uchun mas’ullikni his qilish, o‘z faoliyatini nazorat qilish, o‘z-o‘ziga baho bera oladigan, o‘z-o‘ziga hisob bera oladigan shaxs darajasiga yetish [7].

Rumiy shaxs o‘zini anglashi uchun: “Ko‘zni yumgil, ko‘zga aylansin ko‘ngil, ko‘z bo‘lurmu haqni ko‘rmas bo‘lsa ul...”, - deydi [10].

Allomaning fikricha, o‘zlikka erishish uchun ko‘z va ko‘ngil birligi, “til va dil birligi”ga erishish lozim [9]. O‘zlikni anglash jamiyat oldida turgan vazifalarni to‘g‘ri anglash, ijtimoiy tajribalardan foydalanish, qonuniyatlarni bilish, Vatan va millat oldidagi mas’uliyat tuyg‘usi hamdir.

Shunday ekan, yoshlarning o‘zini anglashi ularning axloqiy kamoloti va jamiyatga integratsiyasini ta’minlab beruvchi muhim mezondir. Uyushmagan yoshlarning o‘zligini anglashiga yordam berish, ularni tushunish va psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali jamiyatga moslashuvini ta’minlash hamda “jamiyatga va shaxsning o‘ziga foydali” bo‘lish bilan bog‘liq optimistik qarashlarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Hozirgi globallashuv sharoiti yoshlarni mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-ma’rifiy va siyosiy hayotiga integratsiyalashuvini ta’minlash borasida ma’lum chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. “Yoshlar” tushunchasining mohiyati haqida so‘z borar ekan, shuni aytish kerakki, O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida: “Yoshlar (yosh fuqarolar) – o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslardir”, deya huquqiy ta’rif berilgan [1]. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham “yoshlar - navqiron yigit-qizlardir”, deb izoh berilgan [13].

Demak, yoshlar aholining o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan qatlami bo‘lib, mamlakatimizda voyaga yetmaganlar va yoshlarning hissasi aholining 58,8 foizini tashkil etadi [1]. Respublikamizda so‘nggi yillarda

“Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi” [3] tamoyiliga ko‘ra, Yangi O‘zbekiston yoshlarini ijod, ilm, ta’lim-tarbiyada peshqadam qilib tarbiyalashning konseptual g‘oyalari bo‘yicha zarur huquqiy-me’yoriy asoslar yaratildi hamda “yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash” [1] ustuvor vazifa sifatida belgilandi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar muammolari va ular bilan ishlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2024-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan yoshlar hayotiga taalluqli bo‘lgan 40 ta qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinganligi ham buning yaqqol isbotidir. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasining 3 ta Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta Farmoni, 8 ta Qarori, 2 ta Farmoyishi;
- Vazirlar Mahkamasining 18 ta Qarori va 4 ta Farmoyishi imzolangan.

Mazkur me’yoriy hujjatlarda ko‘zda tutilgan asosiy maqsad yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Yoshlar va ular bilan ishlash masalalari qator rivojlangan mamlakatlarda ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Xususan, xorijiy mamlakatlarning aksariyatida davlatning yoshlar siyosati sohasidagi asosiy tamoyillari va vazifalari aks etgan huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish masalasiga katta e’tibor qaratiladi. Misol uchun, Armaniston, Ozarbayjon, Belarus, Finlandiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Koreya, Serbiya, Moldova va Germaniya [14] kabi davlatlarda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar strategiyalar orqali amalga oshirilmoqda.

Strategiyaning afzal tomonlaridan biri shundaki, uni qabul qilishdan oldin yoshlarning turli qatlamlari o‘rtasida tadqiqotlar o‘tkazilib, mavjud holat va muammolar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etishga oid tegishli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. Ikkinchi tomondan esa, ma’lum vaqt oralig‘ida strategiyadagi vazifalarning ijrosi monitoring qilib boriladi.

Bu davlatning yoshlarga oid siyosatini muayyan muddatlarda baholab borish va tahlil qilish imkonini beradi. Misol uchun, Moldovada yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda bugungi kunga qadar 3 ta strategiya ishlab chiqilgan. Xususan, “2009-2013-yillarda yoshlar masalalari bo‘yicha milliy strategiya”, “Moldova-2020 milliy rivojlanish strategiyasi” hamda “2020-yilgacha yoshlar

sektorini rivojlantirishning milliy strategiyasi” kabi hujjatlar mamlakatda yoshlar siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Moldovada yoshlar bilan ishlashda diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslikka alohida e’tibor qaratiladi. Bunda yoshlarning turli guruhlari orasida tenglik masalasiga urg‘u beriladi. Ayniqsa, ularning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish va innovatsion faoliyatga yo‘naltirish masalalariga katta ahamiyat berilgan.

Moldovada “yoshlar bilan ishlovchi mutaxassis”lar yordamidan foydalaniladi. Bunda yoshlarning turli tartibbuzarliklarga aralashib qolmasligi va bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazishi uchun ular turli soha mutaxassislariga biriktiriladi. Mazkur jarayonda “ustoz-shogird” tizimida ishlashga alohida e’tibor qaratiladi. Yoshlarni maktab davridan boshlab biror mutaxassisga biriktirish orqali ularning ilmiy-ijodiy faolligini oshirish maqsad qilingan.

Armaniston Respublikasida yoshlar bilan ishlash bo‘yicha “2013-2017-yillarda yoshlarga oid davlat siyosati strategiyasi” [15] qabul qilingan.

Mazkur strategiyada quyidagi jihatlarga e’tibor qaratilgan:

- yoshlarning mamlakat siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi ishtirokini oshirish;
- yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va bandligini ta’minlash;
- yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish;
- yoshlarni ma’naviy va madaniy qadriyatlar hamda harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- uzluksiz va norasmiy ta’limni yanada rivojlantirish.

Yuqorida keltirilgan jihatlardan ko‘rinib turibdiki, yoshlar siyosatida asosiy e’tibor “uyushmagan yoshlar” qatlamining shakllanib qolishining oldini olishga qaratilgan. Buning uchun ularni ish bilan band qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muhim hisoblanadi. Moldovadagi kabi Armanistonda ham yoshlar bilan ishlashda “mutaxassislarga biriktirish” tamoyiliga amal qilinadi.

Serbiyada ham “2015-2025-yillarda yoshlar milliy strategiyasi” [16] amaliyotga joriy etilgan.

Strategiya yoshlar siyosati sohasida 9 ta muhim vazifani amalga oshirishni ko‘zda tutadi:

- yoshlarning mehnat qobiliyati va bandligini oshirish;

- yoshlarning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha malakasini oshirish hamda innovatsiyalar sohasidagi bilimlarini rivojlantirish;
- yoshlarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash;
- yoshlarning salomatligini mustahkamlash;
- yoshlarning o‘z xavfsizligi sohasidagi madaniyatini yuksaltirish;
- jamiyatdan ajralib qolish xavfi bo‘lgan yoshlar guruhlarining ijtimoiylashuviga ko‘maklashish;
- yoshlar o‘rtasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va yosh migrantlarni qo‘llab-quvvatlash;
- yoshlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan xabardor qilishni takomillashtirish;
- madaniyat sohasidagi dasturlarni yaratishda yoshlarni faol jalb qilish [17].

Yuqorida keltirilgan tamoyillarga ko‘ra, yoshlarning qobiliyatiga qarab bandligini ta’minlash, ularning psixososial salomatligi va ijtimoiylashuviga katta e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, 3-bandda keltirilgan “yoshlarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash”, 6-banddagi “jamiyatdan ajralib qolish xavfi bo‘lgan yoshlar guruhlarining ijtimoiylashuviga yordamlashish” masalasi biz tadqiq etayotgan “uyushmagan yoshlar” qatlami bilan ishlashning o‘ziga xos mexanizmi hisoblanadi.

Chunki “jamiyatdan ajralib qolish xavfi bo‘lgan yoshlar” deyilganda, og‘ishgan xulq toifasiga kiruvchi, suitsidal urinishlarni sodir etgan, huquqbuzarlik sodir etgan yoshlar nazarda tutiladi. Davlat siyosatida mazkur qatlam bilan ishlash muhim ekanligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Boisi shuki, jamiyatdagi har bir xavf guruhiga mansub yoshlar millatni tubanlik va ma’naviyatsizlikka olib kelishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yoshlar muammolarini davlat siyosati sifatida ko‘rib, ular bilan ishlashning alohida tizimini yo‘lga qo‘ygan mamlakatlardan biri Ozarbayjon Respublikasi hisoblanadi. Xususan, mazkur mamlakatda 2015-yilda “2015-2025-yillarda Ozarbayjon yoshlarini rivojlantirish strategiyasi” qabul qilingan.

Mazkur strategiyada quyidagi jihatlar qamrab olingan:
- yoshlarni kasb tanlash borasidagi bilimlarini mustahkamlash;
- yoshlar orasidagi ishsizlik muammosini ijtimoiy jihatdan tadqiq etish;
- nogironligi bo‘lgan yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish;
- xavf guruhiga mansub yoshlarni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiylashuvini ta’minlash;

- yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish [18].

Yuqorida ko‘rsatib berilgan bandlarda aynan turli qatlamga mansub yoshlar bilan ishlash va ularni qo‘llab-quvvatlash masalalari yoritib berilgan. Xususan, yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning faolligini oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblangan Koreya Respublikasida yoshlar siyosati masalasi ikki muhim qonun asosida nazorat qilinadi. Bu “Yoshlar borasidagi Qonun”dir [19].

Koreyada davlat siyosati quyidagi tamoyillarga bo‘ysunadi:

- yoshlarni band qilish va ularning huquqlarini himoya qilish;
- yoshlarning faolligini oshirish;
- yoshlar mustaqilligini ta’minlash va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- yoshlarning ilmiy-innovatsion faolligini oshirish.

Bizga ma’lumki, Koreyada mamlakat rivojlanishi uchun yoshlarni ilmiy-innovatsion faoliyatga yo‘naltirish masalasiga katta e’tibor qaratiladi. Chunki yoshlarning ilmiy-innovatsion faolligi, kreativ fikrlashi va ijodiy faolligi jamiyat hamda davlat rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Koreyada yoshlar siyosatida e’tibor qaratiladigan jihatlardan yana biri salbiy ijtimoiy hodisalar, xususan, yoshlar orasidagi nigilizm va jinoyatchilikning oldini olishdir.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda dasturiy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha Belorussiya Respublikasida ham bir qator hujjatlar ishlab chiqilgan. Xususan, 2016-2020-yillarga mo‘ljallangan “Ta’lim va yoshlar siyosati”, “Belarus Respublikasida xalq salomatligi va demografik xavfsizlik”, “Belarus Respublikasida bolalar va yoshlarning uzluksiz ta’limi”, “Aholining ijtimoiy himoyasi va bandligini ta’minlash” [20] kabi davlat dasturlari orqali mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Belorussiya Respublikasida amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatining muhim jihatlaridan biri unda iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilishidir.

Belorussiyada amalga oshirilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi quyidagilarga qaratilgan:

- yoshlarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishiga e’tibor qaratish;
- jamiyat taraqqiyotida iqtisodiy va ijtimoiylashuv jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash;

- yoshlarni huquqiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- yoshlarning hayotiy strategiyasini belgilash masalalari;
- iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni aniqlash;
- sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;
- yoshlarning ta’lim-tarbiyasini qo‘llab-quvvatlash;
- yoshlarni jamiyat manfaatlari uchun foydali qilib voyaga yetkazish [21].

Belorussiyada amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatida yoshlarning bandligini ta’minlashga katta e’tibor qaratiladi. Shu boisdan yoshlarning axborot-kommunikatsiyaga oid bilimlarini kengaytirish va yoshlarga nisbatan “raqamli avlod” atamasini qo‘llash taklif etilgan. “Raqamli avlod”ni jamiyatga manfaatli qilib voyaga yetkazish uchun ularning huquqiy savodxonligini, ma’naviyati va ayniqsa vatanparvarlik hissini tarbiyalash birinchi o‘ringa qo‘yiladi.

Yoshlar qatlami bilan ishlashda Finlandiya tajribasi ham katta ahamiyatga ega. Xususan, Finlandiyada yoshlar siyosati “Youth Act” dasturi asosida olib boriladi. Mazkur dasturda yoshlarni ijtimoiylashuviga yordam berish quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

- yoshlarning jamiyatga ijtimoiy integratsiyasini qo‘llab-quvvatlash;
- yoshlarning qobiliyatini rivojlantirish;
- yoshlarda dahldorlik hissini shakllantirish uchun ularning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, mustaqil qaror qabul qilish hissini tarbiyalash;
- yoshlarda huquqiy ong va fuqarolik burchini tarbiyalash [22].

Finlandiyada yoshlarda “ijtimoiy mas’uliyatlilik pozitsiyasini rivojlantirish” [23] masalasiga katta e’tibor qaratilgan. Buning uchun bolalar va yoshlar orasidagi huquqbuzarlikka qarshi kurashish maqsadida ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga katta ahamiyat berilgan. Finlandiyadagi ta’lim tizimida asosiy e’tibor yoshlarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini va bu boradagi hamkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Buning uchun ishsiz yoshlarga mahorat maktablarini tashkil etish, yoshlar orasidagi salbiy illatlar (spirtli ichimliklar, giyohvandlik)ning oldini olish maqsadida ularning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish hamda ma’naviy qadriyatlarni bolalikdan shakllantirish muhim sanaladi.

Yoshlar va ularning muammolari bilan ishlash masalasida Germaniya tajribasi ham muhim o‘ringa ega. Germaniyada yoshlarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratishga intiladilar. Yoshlar orasidagi huquqbuzarlik va tartibbuzarliklarning oldini olishda quyidagilarga e’tibor qaratish Germaniyaning yoshlarga oid davlat siyosatida muhim o‘rin tutadi:

- yoshlarning ijtimoiy muammolarini aniqlash va ularni hal etish;
- yoshlar orasidagi ijtimoiy muammolarning oldini olish;
- yoshlarni jamiyat hayotiga integratsiyasini ta’minlash;
- yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash;
- yoshlarda o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- yoshlarga nisbatan tolerant munosabatni va axloqiy tushunchalarni shakllantirish [24].

Germaniyada yoshlar orasida turli illatlarning oldini olish uchun ularga o‘z-o‘zini anglashi uchun keng imkoniyatlar yaratib beriladi va qo‘llab-quvvatlanadi. Buning uchun ishsiz yoshlarning reproforientatsiyasiga, ularning huquqiy ongini oshirishga, ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga va mehnat tarbiyasiga katta e’tibor qaratiladi.

Yoshlar muammolari bo‘yicha ishlashda Qozog‘iston Respublikasining ham o‘z tajribasi mavjud. Xususan, yoshlar orasidagi salbiy illatlarning oldini olish va destruktiv guruhlarga kirib qolishning oldini olishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

- voyaga yetmagan yoshlarga psixologik-pedagogik, tibbiy-sotsiologik va yuridik yordam ko‘rsatish;
- imkoniyati cheklangan hamda noqulay sharoitlarda yashovchi yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- yosh oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- yoshlarni o‘qitish va mehnatga jalb qilish masalasida huquqiy yordam berish;
- voyaga yetmagan deviant xulq egasi bo‘lgan huquqbuzar yoshlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish;
- axloq tuzatish muassasalaridan qaytgan, giyohvandlik va boshqa salbiy illatlarga moyilligi bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy reabilitatsiyasiga e’tibor qaratish;
- yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish;
- yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish va soha mutaxassislaridan kasb o‘rganishlarini yo‘lga qo‘yish;
- yoshlarni ish bilan band qilish va kasbga yo‘naltirish [25].

Qozog‘istonda uyushmagan yoshlar guruhiga mansub yoshlar bilan ishlashning o‘ziga xos tajribasi mavjud. Bu borada mazkur mamlakat yoshlarning ijtimoiy bandligini ta’minlash va ularni jamiyatga qayta adaptatsiya qilish borasida

tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun ularni jamoat ishlariga jalb qilish, tadbirkorlikka yo‘naltirish hamda iqtisodiy ong va milliy xususiyatlarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Qirg‘izistonda esa yoshlarga oid davlat siyosati “2020-2030-yillarga mo‘ljallangan yoshlar siyosati konsepsiyasi” [26] asosida olib boriladi. Mazkur konsepsiyada 3 ta asosiy yo‘nalish belgilab olingan. Bular quyidagilar:

Birinchi yo‘nalish - yoshlarni maqsadi sari intilishiga undovchi ijtimoiy institutlar faoliyatini kuchaytirish;

Ikkinchi yo‘nalish - yoshlarning javobgarligi yuqori bo‘lgan qarorlarni qabul qilishdagi faolligini oshirish;

Uchinchi yo‘nalish - yoshlarni raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalashga e’tibor qaratish.

Mazkur konsepsiyaga muvofiq, yoshlarni destruktiv oqimlar ta’siridan himoya qilish uchun ijtimoiy institutlar faolligini oshirishga katta e’tibor qaratiladi. Qirg‘izistonda yoshlar orasidagi negativ va destruktiv holatlarning oldini olishdan ko‘ra, ularning pozitiv xususiyatlarini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat beriladi. Mazkur holatda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- pozitiv yo‘nalganlik - bunda yoshlarning qilgan “salbiy ishlari” emas, balki ularni “ijtimoiy foydali ish”ga yo‘naltirish;
- kuchli tomonni rivojlantirish - yoshlarning zaif tomonlarini emas, balki qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirish;
- universallik - yoshlarni tabaqalashtirmasdan, ularning imkoniyatlarini teng safarbar etish;
- jamiyatga tayanganlik - yoshlarni milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- hamkorlik - yoshlar orasida har qanday holatda hamkorlikka intilish [8].

Qirg‘iziston tajribasidan ko‘rinib turibdiki, yoshlar orasidagi negativ, xususan “uyushmagan”, destruktiv holatlarning oldini olishda milliy urf-odatlarga tayangan holda yoshlarning kuchli tomonlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratiladi.

Yuqorida keltirilgan xalqaro tajribalar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, yoshlar siyosati barcha mamlakatlarda dolzarb ahamiyatga ega. Yoshlarning muammolarini aniqlash va ular bilan ishlashda davlat siyosati muhim o‘rin tutadi. Yoshlar jamiyat ravnaqini ta’minlash bilan bir qatorda undagi muammolarning kelib chiqishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Chunki yoshlar jamiyatdagi

noturg‘unlikni ham keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Yoshlar jamiyatning turg‘unligi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi qatlam bo‘lishi bilan birga, ular orasida “uyushmagan yoshlar” qatlami ham mavjud.

Mazkur qatlam qaysidir ma’noda jamiyat taraqqiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. “Uyushmagan yoshlar” tushunchasi haqida so‘z borar ekan, ushbu ibora “uyushmagan” va “yoshlar” so‘zlari birikmasidan tashkil topgan. “Uyushmagan” so‘zining o‘zagi “uyushiq” bo‘lib, unga o‘zbek tilining izohli lug‘atida “uyushgan, jipslashgan, ahil”, unga ma’nodosh bo‘lgan “uyushma” so‘ziga esa “bir maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilish uchun birlashgan kishilar yoki tashkilotlar birlashmasi” mazmunida izoh berilgan [13]. Demak, mantiqan olib qaraganda, “uyushmagan” so‘zi “uyushiq” yoki “uyushma” so‘zlarining aksi, ya’ni antonimi bo‘lib, “jipslashmagan, ahil bo‘lmagan, muayyan maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilish uchun birlashmagan” ma’nolarini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatida uyushmagan yoshlar bilan ishlash masalasi alohida o‘rin tutadi. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “...uyushmagan yoshlar bilan ishlash, farzandlarimiz o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish borasidagi faoliyatni yanada kuchaytirish zarurligini ta’kidlash lozim”, - deb aytadi [4].

Darhaqiqat, uyushmagan yoshlar toifasi jamiyatdagi turg‘un va farovon hayotga zarar yetkazishi mumkin. Biz aytayotgan uyushmagan yoshlar guruhiga kimlar kirishini aniqlashtirib olsak, bular avvalo “uyushmagan, ya’ni ishlamaydigan, o‘qimaydigan, tayin bir mashg‘ulotga ega bo‘lmagan, salbiy ta’sirlarga beriluvchi yoshlar” hisoblanadi [5].

Shunday ekan, uyushmagan yoshlarning quyidagi turlarini ko‘rishimiz mumkin:

- vaqtincha ishsiz, o‘qimaydigan yoshlar
- turli sabablarga ko‘ra foydali ish bilan band bo‘lmagan, kasb egallashga intilmaydigan yoshlar qatlami;
- moddiy ta’minotga muhtoj, ijtimoiy ehtiyojmand va adashgan yoshlar
-moddiy manfaatdorlik va ehtiyojmandlik tufayli destruktiv, ekstremistik oqimlarga qo‘shilib qolgan yoshlar guruhi;
- huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyilligi mavjud yoshlar
- qonunga qarshi motivatsiyasi kuchli bo‘lgan, jamiyat va atrofdagilar manfaatlariga qasddan qarshi chiqadigan, delinkvent xulq-atvorga ega yoshlar;

suitsidal xavf guruhiga kiruvchi yoshlar - o‘z joniga qasd qilishga yoki o‘ziga zarar yetkazishga uringan yoshlar guruhi;


- profilaktik hisobda turuvchi, shuningdek jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan yoshlar – addiktiv, deviant xulq-atvor egasi bo‘lgan, jazo muddatini o‘tab bo‘lib, resotsializatsiya jarayonini boshidan kechirayotgan yoshlar.

Uyushmagan yoshlar guruhiga kiruvchi shaxslar bilan ishlashda, manzilli psixologik xizmatni tashkil etishda ularning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tushunish hamda tahlil qilish muhim o‘rin tutadi. Yoshlar, ayniqsa destruktiv xulqqa moyilligi bor uyushmagan yoshlar bilan ishlashda “shaxsning pozitiv sifatlarini kuchaytirish”, xalqimizdagi naql bilan aytganda “yomonini yashirib, yaxshisini oshirish” tamoyiliga muvofiq “oila–mahalla–ta’lim muassasasi”, “oila-mahalla” tizimidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Shu maqsadda biz tomonimizdan uyushmagan yoshlar orasida ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma o‘tkazildi. Mazkur ijtimoiy-psixologik so‘rovnomadan ko‘zlangan maqsad yoshlarning muammolarini o‘rganish orqali ularga psixologik xizmatni tashkil etishning psixologik mexanizmlarini taklif etishdan iboratdir. So‘rovnoma ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda yoshlarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari aniqlangan bo‘lsa, ikkinchi qismda psixologik xizmatni tashkil etish zaruratining darajasi aniqlangan.

Mazkur so‘rovnoma “Uyushmagan yoshlarga psixologik xizmat ko‘rsatishning “Life-coaching” ilmiy-amaliy laboratoriyasini tashkil etish” nomli loyiha doirasida respublikamizning turli hududlari, ya’ni Xorazm, Samarqand, Andijon, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida olib borildi.

Mazkur so’rovnomada uyushmagan yoshlarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari va psixologik xizmatni tashkil etish mexanizmlarini aniqlandi. Tadqiqotga jalb qilingan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo’lgan 158 nafar respondentlarning ijtimoiy demografik xususiyatlari quyidagicha ekanligi kuzatilgan.




1-rasm. Respondentlarning yoshga oid xususiyatlari (n=158)

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, respondentlarning 2 foizini 14 yoshdagilar, 3,5 foizini 15 yoshdagilar, 4 foizini 16 yoshdagilar, 6,5 foizini 17 yoshdagilar, 3 foizini 18 yoshdagilar, 4,5 foizini 19 yoshdagilar, 10,5 foizini 20 yoshdagilar, 5,5 foizini 21 yoshdagilar, 4,5 foizini 22 yoshdagilar, 7,5 foizini 23 yoshdagilar, 6,5 foizini 24 yoshdagilar, 4 foizini 25 yoshdagilar, 17,5 foizini 26 yoshdagilar, 5 foizini 27 yoshdagilar, 9,5 foizini 28 yoshdagilar hamda 6,5 foizini 29 yoshdagilar tashkil etgan.

Uyushmagan yoshlar guruhi shakllanishining katta qismi 20 yosh, 23 yosh, 26 yosh, 28 yosh va 29 yoshdagi respondentlar ulushiga to‘g‘ri kelmoqda. 20 yoshdagi holat respondentlarning aksariyati o‘qishni bitirgunga qadar hali o‘z o‘rni va kasbiy yo‘nalishini “qidirish”ga vaqt sarflayotganligi bilan izohlansa, 26-29 yosh oralig‘idagi “uyushmaganlik” yoshlarning o‘z hayotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymaganligi, aniq maqsadlarining yo‘qligi hamda kasbiy o‘z-o‘zini anglashidagi muammolar bilan bog‘liq holatdir.

Bu davrda yoshlarni monomarkazlarda kasbga qayta o‘qitish bilan bir qatorda, ulardagi “boqimandalik” illati bartaraf etilmasa, mazkur chora-tadbirlar samarasizligicha qolib ketaveradi. 26-29 yosh oralig‘idagi respondentlarning “boqimandalik kayfiyati”, “o‘z ustida ishlamasligi”, hayoti va kasbini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq muammolarining sabablari ko‘plab subyektiv va obyektiv omillarga bog‘liqdir.

Uyushmagan yoshlarning ijtimoiy-demografik xususiyatlaridan biri bu gender tafovutlaridir. Natijalar quyidagi rasmda keltirilgan:




2-rasm. Respondentlarning gender farqlari (n=158)

Mazkur farqlar bizning milliy mental xususiyatimizda muhim ahamiyatga ega. Chunki bizda ayollarga nisbatan “uy bekasi” yoki “ishlamasa ham eri boqib oladi” degan gender stereotipik tushunchalar mavjud. Shu boisdan natijalarimiz tahlilida gender farqlarga ham e’tibor qaratdik. Natijalarimizdan ko‘rinib turibdiki, respondentlar orasida ayollar ko‘pchilikni tashkil etib, umumiy to‘plamning 72,2 foizini, erkaklar esa 27,8 foizini tashkil qilmoqda.

Shundan uyushmagan yoshlar orasidagi 72,2 foiz ayollardan iborat bo‘lib, ularda o‘z ijtimoiy maqomidan qoniqmaslik, “farzand tarbiyasi bilan uyda o‘tirib qolishni istamaslik” kayfiyatining yuqoriligi aniqlandi. Erkaklarda esa aniq hayotiy strategiyalarning mavjud emasligi, o‘ziga ishonchning pastligi hamda “o‘ziga mos kasbni tanlash” uchun yetarlicha ijtimoiy tajribaga ega emasligi kuzatilgan.

Yoshlarning ijtimoiy xususiyatini aniqlashdagi muhim demografik omillardan biri bu ularning oilaviy ahvolidir. Bu bo‘yicha olingan natijalar quyida keltirilgan:



3-rasm. Respondentlarning oilaviy ahvoli haqidagi ma’lumotlar (n=158)

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, uyushmagan yoshlar orasida turmush qurmaganlar 31,5 foizni tashkil etib, eng yuqori natijani qayd etgan. Mazkur


holatning o‘ziyoq yoshlarning oilaviy hayotda hali to‘liq o‘zlarini anglamaganliklari, oila mas’uliyatini his qilmasliklarini anglatadi. Natijalarimizdagi ajrimlar va fuqarolik nikohi bo‘yicha berilgan ma’lumotlarda ham uyushmagan yoshlarning ko‘rsatkichlari yuqoridir.

Mazkur holat yoshlarning oila deb ataluvchi muqaddas maskanga nisbatan mas’uliyatni his qilmasliklari, qonuniy jihatdan oila yaxlitligini ta’minlashga intilishning yo‘qligi, shaxslararo munosabatlardagi sotsial kompetentlikning pastligini anglatadi. Odatda fuqarolik nikohida bo‘lish “qonuniy va ijtimoiy mas’uliyatdan qochishga intilish”ning yuqoriligini anglatadi.

Ajrimlarning ko‘pligi esa yoshlarning oilaviy hayotga psixologik jihatdan yetuk emasligini anglatadi. Natijalarimizning muammoli tomoni shundaki, 30 foiz yoshlar oilali bo‘lsa ham “oila mas’uliyati”ni o‘z zimmasiga olmagan. Mazkur holat yoshlarning nomaqbul oilada voyaga yetganligi yoki oilaviy munosabatlarda psixologik barqarorlikning yetishmasligidan dalolat beradi. Chunki oilali bo‘la turib, kasb egasi bo‘lmagan yoki tegishli oilaviy munosabatlarni barqarorlashtira olmaganligi ularning yetarlicha hayotiy bilim va tajribaga ega emasligidan darak beradi. Respondentlarning 24 foizida esa fuqarolik nikohi ustunlik qilmoqda.

Mazkur holat ham yoshlarning qadriyatlar tizimi o‘zgarganligi, oilaviy munosabatlarga jiddiy yondashmasliklarini anglatadi. Ko‘pincha bunday holat yoshlarning oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq javobgarlikni o‘z zimmalariga olishni istamasliklari natijasida yuz beradi. Bu holatni ajrashgan yoshlar miqdorining ko‘pligi ham tasdiqlamoqda. 14,5 foiz yoshlar oilaviy munosabatlardagi ijtimoiy rollarini ham to‘liq anglamasliklari va tushunmasliklarini bildiradi.


Ijtimoiy-psixologik so‘rovnomaning navbatdagi qismi yoshlar orasida psixologik xizmatga ehtiyojning mavjudlik holatini aniqlashga qaratilgan.



4-rasm. Respondentlarning psixologik xizmatga bo’lgan ehtiyojlari (n=158)

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, uyushmagan yoshlarning 62,6 foizi psixologik xizmat tizimiga ehtiyoji borligini, mahallalar qoshidagi psixologik maslahat tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. 28,5 foiz yoshlar esa o‘z muammolarini “begona shaxs” aralashuvisiz hal qilishga intilishini bildirgan. Odatda psixologga ishonchi bo‘lmagan shaxslar ko‘proq “o‘zlariga”, “o‘z muammolariga” o‘ralashib qolgan bo‘ladilar. Bunday yoshlar atrofdagilarga va oila a’zolariga ishonchsizlik bilan qarashlari bilan xarakterlanadi. 8,9 foiz uyushmagan yoshlar esa o‘zlarida psixologik xizmatga ehtiyojning bor yoki yo‘qligini ham bilmaydilar. Mazkur holat yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi pastligini hamda hayotga pessimistik qarashlarning ustunligini ko‘rsatadi.

So‘rovnomada uyushmagan yoshlarning psixologik xizmat orqali qanday muammoni hal qilishga urinishlari bo‘yicha ham savollar mavjud edi. Yoshlar “Psixologik xizmat orqali qanday muammolaringiz yechimini topishni istaysiz?” degan savolga quyidagicha javob berganlar:



5-rasm. Yoshlarning psixologik xizmat orqali yechimini topishni istovchi muammolari (n=158)

Olingan natijalarda ko‘rinib turibdiki, uyushmagan yoshlarning psixologik xizmat orqali yechimini topishni istaydigan muammolari gender jihatlari orasida erkaklarda “kasb egallashni istash” (62,5%), ayollarda esa “oilaviy munosabatlarni yaxshilash” (65,2%) ustuvorligi bilan ajralib turibdi.

Mazkur holat erkaklarda kasb egallash, kasbiy yo‘nalishda o‘zligini topish istagining yuqoriligini, ayollarda esa oila qo‘rg‘onini mustahkamlash uchun o‘zaro konstruktiv munosabatlar qurish ko‘nikmasini shakllantirishga ehtiyoj yuqoriligini anglatadi. Erkaklarda o‘zini tushunishga intilish 56,4 foizni, ayollarda esa 44,6

foizni tashkil etib, bu yoshlarning o‘zini tushunishga va o‘zini anglashga intilayotganligini bildiradi. Mazkur holat yoshlarda o‘zlikni anglash va refleksiv jarayonlarning faollashuviga intilish mavjudligini ko‘rsatadi. Qolaversa, bu toifa yoshlar o‘zini tushunmaganligi bois hayotini to‘g‘ri qura olmayotganligini bildiradi.

Yoshlar orasida kasb egallashga intilish erkaklarda 62,5 foizni, ayollarda esa 56,4 foizni tashkil etib, mazkur holat ularning kasbiy tasavvurlarini shakllantirishga intilishi bilan bog‘liq. Uyushmagan yoshlar o‘zlarida kasbiy tushuncha va sifatlar yetarlicha shakllanmaganligi bois “hayotda o‘z o‘rnini topa olmayotganligi”ni tushunganlari uchun, o‘zlarida kasbiy tushunchalar tizimini shakllantirishga intilayotganligini bildiradi.

Uyushmagan yoshlarning 34,5 foiz erkaklari va 65,2 foiz ayollarida oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirish uchun psixolog yordamiga ehtiyoj mavjudligi aniqlangan. Mazkur holat uyushmagan yoshlarning destruktiv oilaviy munosabatlari ularning jamiyatga integratsiyasini qiyinlashtirayotganligini anglatadi.

Respondentlarning 27,2 foiz erkaklari va 12,8 foiz ayollari o‘zlarida hayotga nisbatan pozitiv munosabat yetishmasligi tufayli doimiy “norozi” kayfiyatda yurishlarini bildirganlar. Shu bois ular o‘zlaridagi pessimistik kayfiyatni optimistik kayfiyatga transformatsiyalash usullarini izlashga urinmoqdalar. Bu transformatsiyani esa o‘zlariga ko‘rsatiladigan psixologik xizmat bilan bog‘lamoqdalar.

Yoshlar orasidagi 9,8 foiz erkaklar va 28,7 foiz ayollar odamlarni tushunish borasida psixolog yordamiga ehtiyojlari borligini ko‘rsatishgan. Mazkur holat yoshlarda ijtimoiylashuv bilan bog‘liq masalalarda ijtimoiy ko‘nikmalar yetishmasligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi eksperimental ma’lumotlarga asoslanib, uyushmagan yoshlarga psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha o‘z takliflarimiz ishlab chiqildi. Ilmiy izlanishlarimiz asosida uyushmagan yoshlarning “vaqtincha ishsiz” qatlamining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash orqali ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda manzilli psixologik ishni tashkil etishning ta’sirchan mexanizmlariga asoslangan transformatsion modelni taklif qilish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Yuqoridagilarga asoslanib, yoshlar va uyushmagan yoshlar bilan ishlash borasidagi tahlillar quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladigan shaxs sifatida kamol toptirishda xalqaro tajribaning kuchli jihatlarini o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi;
2. Yoshlar orasida “uyushmagan guruhlar” shakllanishining oldini olish uchun ijtimoiy institutlarning ta’sir mexanizmlarini kuchaytirish hamda manzilli psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yish muhim ekanligi aniqlandi;
3. Uyushmagan yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga asoslanib, ularga psixologik xizmat ko‘rsatishning dolzarb muammolari “o‘zini va atrofdagilarni tushunish”, “kasbiy tushunchalar tizimini barqarorlashtirish”, “oilaviy munosabatlarda konstruktivlikka erishish”, “qadriyatlar tizimi orqali hayotiy pozitsiyani o‘zgartirish” bilan bog‘liqligi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘RQ-406-son, 2016-yil 14-sentabr // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: http://lex.uz
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. - 2017. - 14-oktabr. URL: http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1147
3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // O‘zA. - 2020. - 30-sentabr. URL: https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - 494 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 507 b.
6. Геродот. История в 9 книгах: в 2 т. / пер., предисл. и указ. Ф. Г. Мищенко. - Москва, 1885-1886.

7. Izbullaeva G.V. Jaloliddin Rumiy asarlarida yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasi. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2015.- 207 b.

8. Молодежная политика местного самоуправления в Кыргызской Республике: практическое руководство. - Бишкек: Общественное объединение «Институт политики развития», 2020. - 58 с.

9. Muhammad Iste'lomiy. Ilohiy ishq kuychisi. "Masnaviy"ga muqaddima (Mavlono Jaloliddin Muhammad Balxiy) / fors tilidan Ja'far Muhammad tarjimasi. - Tehron, 2001. - 109 b.

10. Rumiy J. Ma'naviy masnaviy. 1-jild, ikkinchi kitob. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. - B. 94-95.

11. Собиталиев М. Луқмони Ҳаким ўгитлари ва афоризмлар. - Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2017. - 128 б.

12. Сократ. Цитаты // Socratify. URL: https://socratify.net

13. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. IV jild: Tartibot-Shukr / Tahrir hay'ati: T. Mirzaev va boshqalar. - Toshkent: O'zR FA Til va adabiyot instituti, 2008.- 39 b.

14. National Youth Policies // Youthpolicy.org. URL: http://www.youthpolicy.org/nationalyouthpolicies

15. Государственная молодежная политика Армении. URL: https://www.arlis.am/documentview.aspx?DocID=80598

16. Nacionalna strategija za mlade - ENG // Ministry of Youth and Sports of Serbia. URL: http://www.mos.gov.rs/wp-content/uploads/download-manager-files/Nacionalna%20strategija%20za%20mlade%20-%20ENG.pdf

17. Nacionalna strategija za mlade - ENG // Ministry of Youth and Sports of Serbia. URL: http://www.mos.gov.rs/wp-content/uploads/download-manager-files/Nacionalna%20strategija%20za%20mlade%20-%20ENG.pdf

18. Стратегия развития азербайджанской молодежи в 2015-2025 годах // Azertag. URL: https://azertag.az/ru/xeber/rasporyazhenie-prezidenta-azerbaidzhanskoi-respublikiob-utverzhdenii-strategii-razvitiya-azerbaidzhanskoi-molodezhi-v-2015-2025-godah-829662

19. 청소년 기본법 = Основной закон о молодежи (подростково-юношеский возраст). URL: https://www.law.go.kr

20. Государственная молодежная политика Беларуси // CBC.az. URL: http://cbc.az/ru/v-story/video1517673079

21. Молодежная политика Беларуси // БНТУ. URL: https://bntu.by/molodezhnaya-politika

22. Молодежная политика Финляндии // Новые знания. URL: http://novznania.ru

23. Basic Education Act 628/1998 [Electronic resource]. URL: https://www.finlex.fi/en/laki/kaannokset/1998/en19980628.pdf

24. Youth Policies in Germany // Youth Wiki. - 2017. URL: https://eacea.ec.europa.eu/national-policies/sites/youthwiki/files/germany.pdf

25. Закон Республики Казахстан о молодежной политике. URL: http://law.gov.kz/client/#!/doc/20534/rus/27.07.2007

26. Концепция молодежной политики Кыргызской Республики на 2020-2030 годы. URL: https://cbd.minjust.gov.kg/157204/edition/978698/ru

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**173**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVYI MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**177**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**183**
PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT “PEACE” IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**188**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O‘ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**194**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**203**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/